

**TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDUG‘ANIYEV UCHQUN HABIBULLA O‘G‘LI

**YASHIRIN IQTISODIYOT DARAJASINI FISKAL SIYOSAT
INSTRUMENTLARI YORDAMIDA PASAYTIRISH YO‘LLARI**

08.00.07 - Moliya, pul muomalasi va kredit

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2023

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
экономическим наукам**

**Content of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD) on
economical sciences**

Abdug‘aniyev Uchqun Habibulla o‘g‘li

Yashirin iqtisodiyot darajasini fiskal siyosat instrumentlari yordamida
pasaytirish yo‘llari

5

Абдуганиев Учкун Хабибулла угли

Пути снижения уровня теневой экономики с помощью инструментов
фискальной политики

27

Abduganiev Uchkun Habibulla ugli

Ways to reduce the level of the shadow economy using fiscal policy
instruments

53

E‘lon qilingan ilmiy ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....

57

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc.03/10.12.2019.I.16.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

ABDUG‘ANIYEV UCHQUN HABIBULLA O‘G‘LI

YASHIRIN IQTISODIYOT DARAJASINI FISKAL SIYOSAT
INSTRUMENTLARI YORDAMIDA PASAYTIRISH YO‘LLARI

08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit

Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI

Toshkent – 2023

Falsafa doktori (Doctor of Philosophy) dissertatsiyasi mavzusi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan B2022.2.Phd/Iqt2188 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya ishi Toshkent davlat iqtisodiyot universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tsue.uz) va "ZiyoNet" axborot-ta'lim portali (www.ziynet.uz) manziliga joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Isroilov Bohodir Ibragimovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Xudoyqulov Xurshid Xurramovich

iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Gadoyev Erkin Fayziyevich

iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Yetakchi tashkilot:

Toshkent moliya instituti

Dissertatsiya himoyasi Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti huzuridagi Sc.03/10.12.2019.I.16.01. raqamli Ilmiy kengashning 2023-yil "_____" soat _____ dagi majlisida bo'lib o'tadi. Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya bilan Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (_____-raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 100066, Toshkent shahri, Islom Karimov ko'chasi, 49-uy, Tel.: (99871) 239-28-72, faks: (99871) 239-43-51, e-mail: info@tsue.uz.

Dissertatsiya avtoreferati 2023-yil "_____" kuni tarqatildi.
(2023-yil "_____" dagi _____ — raqamli reestr bayonnomasi).

M.P. Eshov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash raisi, i.f.d., professor

U.V. Gafurov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash kotibi, i.f.d., professor

S.K. Xudoyqulov

Ilmiy darajalar beruvchi Ilmiy kengash huzuridagi ilmiy seminar raisi, i.f.d., professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda davlat boshqaruvi, ishlab chiqarish, savdo-sotiq masalalari va xalqaro iqtisodiy aloqalar hamda davlat moliyaviy nazoratini samarali tashkil etish darajasi va zamonaviy mexanizmlarni amaliyotga joriy etilishi yashirin iqtisodiyotning ulushini kamaytirishga xizmat qiladi. Shu bois, olimlar tomonidan yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlash va uni qisqartirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlarda davlat moliyaviy nazoratini tashkiliy-huquqiy jihatlarini, yashirin iqtisodiyotni aniqlash hamda uni oldini olish tizimi xususida o'z qarashlarini bildirmoqda. Har bir mamlakat yashirin iqtisodiyot ko'lamini kamaytirish chora-tadbirlarini belgilab olmoqda. Ammo ko'rilayotgan chora-tadbirlarga qaramasdan dunyo mamlakatlari iqtisodiyoti tarkibida yashirin sektorning ulushi hamon yuqoriligicha qolmoqda. Jahon banki ma'lumotlariga ko'ra "dunyo bo'yicha yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi o'rtacha 17,2 %, Shveysariyada 8,6 %, Xitoyda 10,2 %, Rossiyada 39 %, Boliviya 66,4 foizni tashkil etadi"¹. Bunda hukumatlarning yashirin iqtisodiy faoliyatni qisqartirishga oid chora-tadbirlarning samaraliligi mamlakatda yashirin iqtisodiyotning darajasini aks ettiradi.

Jahon amaliyotida mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasidan, iqtisodiyot sektoridan, ma'muriy boshqaruv tizimidan va boshqa har qanday omillardan qat'i nazar, barcha iqtisodiy tizimlarda yashirin iqtisodiyotning elementlari mavjudligi yuzasidan ko'plab ilmiy tadqiqot ishlari amalga oshirib kelinmoqda. Shu bois, yashirin iqtisodiy faoliyatning vujudga kelishi, uning rivojlanishi va ko'lami, turli sohalarda namoyon bo'lishi, unga ta'sir etuvchi omillarni va salbiy oqibatlarini aniqlash hamda ularni bartaraf etishga oid ijtimoiy-iqtisodiy va huquqiy jihatlar zamonaviy ilmiy tadqiqotlarning muhim yo'nalishlari sifatida namoyon bo'lmoqda.

O'zbekistonda ham yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori ekanligi sababli hozirda uni qisqartirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlar belgilangan. Xususan, "soliq va bojxona ma'muriyatchiligi vositalari hisob va tushumlarning to'liqligiga, shu jumladan soliqlardan bo'yin tovlagan jismoniy va yuridik shaxslarni aniqlash va javobgarlikka tortishga qaratilishini ta'minlash; yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish faoliyatini "pulni yuvish"ga qarshi kurashish sohasidagi tashkilotlar faoliyati bilan muvofiqlashtirish; ochiqlik va shaffoflikni ta'minlash, yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashishga keng jamoatchilikni, ommaviy axborot vositalarini jalb qilish, jamiyatda yashirin iqtisodiyotga murosasizlik hissini shakllantirish, legal biznes yuritishning nufuzini oshirish"² kabi vazifalar hukumat tomonidan belgilangan. Ushbu ustuvor vazifalar ijrosini ta'minlash masalalari ham tadqiqot ishi mavzusi dolzarbligini asoslovchi holatlardan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 30-oktyabrdagi PF-6098-

¹ Г.А.Алимов, Б.И.Исроилов. Теневая экономика, коррупция, взяточничество: уголовно-правовая оценка. //Монография.-Т.:ЦПКЮ, 2020. с.16-17.

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 30.10.2020-yildagi "Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-6098-son Farmoni. <https://lex.uz/docs/5073459>

sonli “Yashirin iqtisodiyotni qisqartirish va soliq organlari faoliyati samaradorligini oshirish bo‘yicha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi va 2021-yil 10-sentyabrdagi PF-6310-sonli “Bojxona tartib-taomillarini soddalashtirish va davlat bojxona xizmati organlari tashkiliy tuzilmasini yanada takomillashtirish to‘g‘risida”gi farmonlari, 2022-yil 24-martdagi PQ-178-sonli “Jahon banki ishtirokidagi «Soliq ma‘muriyatchiligini isloh qilish” loyihasini amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi, Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 20-iyundagi 394-sonli “O‘zbekiston Respublikasida «Yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi qarorlari va boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublikasi fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga bog‘liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovatsion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Yashirin iqtisodiy faoliyatga oid bo‘lgan munosabatlarning ilmiy-uslubiy va nazariy jihatlarini xorijlik olimlardan F.Shnayder, A.Dreher, F.Smith, J.Thomas, U.Mazhar, P.Méon, M.Fleming, J.Roman, G.Farrell, A.Rajul, E.Michael, A.Alan, B.Nedra, Y.Boujelbene, V.Born, J.Pfeifer, Y.Liu, H. Feng³ va boshqalarning ilmiy tadqiqotlarida o‘z aksini topgan.

MDH mamlakatlaridan A.Черепашкин, А.Комлева, Б.Райзберг, Л.Лозовский, Е.Стародубцева, Ю.Наумов, В. Латов, В.Буров, И.Чурсина, Ю.Копылова, Б.Рахматов, Н.Черненко⁴ va ko‘plab olimlar yashirin iqtisodiyot bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar olib borishgan.

3. Schneider F. (ed.). Handbook on the shadow economy. – Edward Elgar Publishing, 2011.; Schneider F., Enste D. H. Shadow economies: Size, causes, and consequences //Journal of economic literature. – 2000. – Т. 38. – №. 1. – S. 77-114.; Shadow Economies Around the World: What Did We Learn Over the Last 20 Years?© 2018 International Monetary Fund WP/18/17.; Dreher A., Schneider F. Corruption and the shadow economy: an empirical analysis //Public Choice. – 2010. – Т. 144. – S. 215-238.; Smith, P. (1994), ‘Assessing the size of the underground economy: the Canadian statistical perspectives’, Canadian Economic Observer, Catalogue no. 11–010, pp. 16–33.; Thomas, J. J. (1999), Quantifying the black economy: “measurement without theory” yet again?, Economic Journal, 109: 381–9.; Mazhar, U. and Méon, P.G., 2017. Taxing the unobservable: The impact of the shadow economy on inflation and taxation. World Development, 90, pp.89-103.; Matthew H. Fleming, John Roman and Graham Farrell, Journal of International Affairs, Vol. 53, No. 2, Shadow Economies: Promoting Prosperity or Undermining Stability? (Spring 2000), pp. 387-409.; Matthew H. Fleming, John Roman and Graham Farrell, Journal of International Affairs, Vol. 53, No. 2, Shadow Economies: Promoting Prosperity or Undermining Stability? (Spring 2000), pp. 387-409. <http://www.jstor.org/stable/24357758>.; Awasthi, Rajul; Engelschalk, Michael. 2018. Taxation and the Shadow Economy: How the Tax System Can Stimulate and Enforce the Formalization of Business Activities. Policy Research Working Paper;No. 8391. © World Bank, Washington, DC. <http://hdl.handle.net/10986/29603> License: CC BY 3.0 IGO; Auerbach, Alan J. 2017. Demystifying the Destination-Based Cash-Flow Tax. Brookings Papers on Economic Activity 2017: 409–432.; Baklouti, Nedra, and Younes Boujelbene. 2019. Shadow Economy, Corruption, and Economic Growth: An Empirical Analysis. The Review of Black Political Economy, 276–94., Born, B., and J. Pfeifer. 2014. Policy Risk and the Business Cycle. Journal of Monetary Economics 68: 68–85.; Liu, Y., and H. Feng. 2014. Tax Structure and Corruption: Cross-Country Evidence. Public Choice 162: 57–78.

4 А.Черепашкин, А.Комлева. Теневая экономика как угроза экономической безопасности. // Вестник уральского института экономики, управления и права. №1, 2017. С.-13.; Райзберг Б. А., Лозовский Л. Ш., Стародубцева Е. Б. Современный экономический словарь. – Издательский Дом" Инфра-М", 2004.; Наумов Ю. Г., Латов Ю. В. Экономическая безопасность и теневая экономика. – 2016.; Буров В. Ю. и др. Противодействие теневой экономике и определение ее масштабов: отечественный и зарубежный опыт (теория и практика). – федеральное государственное бюджетное образовательное учреждение высшего образования"

Mamlakatimiz iqtisodchi olimlaridan G.Alimov, B.Isroilov, M.Pardayev, N.Muminov, B.Turdiyev, B.Ibragimov⁵ va boshqalarning⁶ asarlarida yashirin iqtisodiyot, uning iqtisodiyot va soliq bazasiga hamda unga ta'sir qiluvchi omillarning nazariy va amaliy jihatlari o'rganilgan.

Ushbu tadqiqotlarda ko'plab davlatlarning yashirin iqtisodiyoti darajalari, uni aniqlash bo'yicha mavjud qarashlar atroflicha tadqiq etilgan. Lekin yuqorida qayd etilgan tadqiqotlarda yashirin iqtisodiyot darajasi va soliq bazasiga hamda budjet daromadlarini shakllantirish masalalariga ta'siri o'rganilmagan.

Shuningdek, O'zbekistonning yashirin iqtisodiyot darajasini qisqartirishda xorij tajribasidan foydalanish amaliyoti ham kam tadqiq qilingan. Mazkur holatlar ushbu dissertatsiya mavzusini tanlash va tadqiqot vazifalarini belgilashga asos bo'ldi.

Dissertatsiya mavzusining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot ishlari bilan bog'liqligi. Mazkur dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning makroiqtisodiy barqarorligi va prognozlashtirilishini ta'minlashning ilmiy-uslubiy asoslari va uslubiyatlarini takomillashtirish" mavzusidagi ilmiy tadqiqot loyihasi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi yashirin iqtisodiyot oqibatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali budjet tushumlari hajmini oshirishga oid taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

yashirin iqtisodiyot tushunchasi, mohiyati va uning mamlakat iqtisodiyoti barqaror rivojlanishiga salbiy ta'siri to'g'risidagi nazariy qarashlarni ilmiy nuqtayi nazardan o'rganish;

yashirin iqtisodiy faoliyat tarkibi hamda ular rivojlanish genezisini tahlil qilish va uni bartaraf etish bo'yicha qo'llaniladigan fiskal mexanizmlarga baho berish;

Забайкальский государственный университет", 2020. – С. 331-331.; И.Чурсина. Влияние теневой экономики на налоговую составляющую экономической безопасности // Диссертация // Москва 2009; Ю.Копылова. Совершенствование экономической политики России в отношении теневой экономики // Диссертация // Волгоград – 2015.; Б.Рахматов. Фискальный характер налогов в национальной экономике Таджикистана // Диссертация // Хужанд – 2011.; Н.Черненко. Совершенствование механизмов и методов оценки противодействия теневой экономике // Диссертация // Москва 2006.

⁵ Г.А.Алимов, Б.И.Исроилов. Теневая экономика, коррупция, взяточничество: уголовно-правовая оценка. //Монография.-Т.:ЦПКЮ, 2020.; В.И.Isroilov. Ways of using methods of economic analysis to improve the efficiency of tax control.// Journalist's Handbook. 2016. №3, 49-52p, Исроилов Б.И.,Ибрагимов Б.Б., Ахмедов З. Влияния теневой экономики на экономическую безопасность страны.// Теневая экономика. –2021. – Том 5. № 4. doi: 10.18334/tek.5.4.113690, Исроилов, Б. И. Теневая экономика и экономическая безопасность в условиях цифровизации / Б. И. Исроилов // Цифровая экономика в контексте национальной безопасности : материалы IV Международной научно-практической конференции, Москва, 14 декабря 2021 года. – Москва: Национальный исследовательский ядерный университет "МИФИ", 2022. – С. 106-113. – EDN AXEBBX.Pardaev M. K., Pardaeva O. Use of digital economy possibilities to decrease level of shadow economy //Development Issues Of Innovative Economy In The Agricultural Sector. – 2021. – С. 75-78.; Б.Исроилов, Б.Ибрагимов, Д.Қобилов. // Хуфёна иқтисодиёт ва уни легаллаштириш йўллари. // Молия журнали №2,2016. 43-47 бет. Муминов Нозим Гаффарович, Жўрабоев Иқболжон Баходиржон Ўғли Яширин иқтисодиётни ўлчаш усуллари // Экономика и финансы (Узбекистан). 2016. №12. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/yashirin-i-tisodiyotni-lchash-usullari> (дата обращения: 18.02.2023). Турдиев Б. С. "Яширин иқтисодиёт" ни қисқартириш ва унга қарши самарали курашиш йўллари //ЮРИСТ АХБОРОТНОМАСИ. – 2020. – Т. 1. – №. 4. – С. 167-173; В.В.Ibragimov. Soliq ma'muriyatchiligi: Muammo va yechimlar. Monografiya.-Т.: "Noshirlik yog'dusi", 2022. -226 b.

⁶ "Yashirin iqtisodiyot" o'quv-amaliy qo'llanma. Bojxona instituti (jamoa muallifligida) –Т., DBQ BI, 2020, 146- bet.

yashirin iqtisodiy sektor tarkibi va turlarini tasniflash hamda budjet daromadlarini shakllantirishga salbiy ta'sirini aniqlash;

tashqi iqtisodiy faoliyatda yashirin sektor ko'lamini tahlil qilish va uni oldini olish bo'yicha takliflar ishlab chiqish;

mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasining budjet daromadlari bazasiga ta'siriga baho berish;

yashirin iqtisodiyot va budjet daromadlari o'zaro bog'liqligini ekonometrik tahlili asosida budjet daromadlarini prognozlashtirish modelini ishlab chiqish;

mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotni fiskal siyosat instrumentlari vositasida tartibga solish bo'yicha takliflar va tavsiyalar kiritish.

Tadqiqotning obyekti sifatida O'zbekiston iqtisodiyotning rivojlanishidagi yashirin iqtisodiyot darajasi va uning o'zgarishi bilan bog'liq institutsional faoliyat olingan.

Tadqiqotning predmeti milliy iqtisodiyotda yashirin iqtisodiyot darajasini fiskal siyosatning dastaklari vositasida pasaytirish va uni takomillashtirishda vujudga keladigan moliyaviy-iqtisodiy munosabatlar tizimi hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada guruhlash, taqqoslash, ilmiy tafakkur, iqtisodiy-statistik, tadqiqot obyektlari va olingan natijalarni bayon qilish usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan elektron bojxona yuk deklaratsiyalarini masofadan bojxona rasmiylashtiruvidan o'tkazish imkonini beradigan "masofaviy elektron deklaratsiyalash" postlarini tashkil etish orqali bojxonaga oid ma'muriy tartib-taomillarni takomillashtirish tavsiya etilgan;

eksport-import operatsiyalarida soliq bazasini yashirish bilan bog'liq holatlarni aniqlash tizimini takomillashtirish uchun "Yagona oyna" portali barcha xizmatlarini bir platformaga joylashtirish hamda ma'lumotlar elektron bazasidan raqamli foydalanishni yo'lga qo'yish taklif etilgan;

bojxona ma'muriyatchiligiga "Vakolatli iqtisodiy operatorlar" tizimini joriy etish va insofli tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillaridan foydalanish huquqini berish tavsiya etilgan;

2028-yilga qadar O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish hisobiga davlat byudjetiga jalb etiladigan tushumlar prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

solliqlar va bojxona to'lovlarini o'z vaqtida undirilishini ta'minlash orqali yashirin iqtisodiyot darajasini qisqartirish maqsadida hududlarda ixtisoslashtirilgan postlarni tashkil qilish to'g'risidagi taklif ishlab chiqilgan;

yashirin iqtisodiy sektorni legallashtirishning raqamli tizimini yo'lga qo'yish maqsadida bojxona, nazorat organlari va xorijiy davlatlar bilan raqamli axborot almashuv amaliyotini joriy etish va xavflarni boshqarishni raqamlashtirish tartibi taklif etilgan;

bojxona va soliq tizimlari xodimlarini ma'muriyatchilik bo'yicha raqamlashtirish yo'nalishida qayta tayyorlash tizimini yo'lga qo'yish asoslangan;

budjet daromadlarini yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirish evaziga oshirishning ko‘p omilli ekonometrik modeli tavsiya etilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi amalga oshirilgan yondashuv, usullar va nazariy ma’lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, keltirilgan tahlillar va tajriba–sinov ishlari samaradorligining matematik–statistik ishonchlilik intervalida tekshirilganligi, statistik qonuniyatlarda keltirilgan ishonchlilik talablariga javob berishi, Bojxona qo‘mitasi, Soliq qo‘mitasi va Statistika agentligining amaliy ma’lumotlariga asoslanganligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati ishlab chiqilgan takliflar yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlash va uni soliq bazasini kengaytirish tizimini takomillashtirishning ilmiy va tashkiliy–uslubiy jihatlarini xalqaro amaliyot tajribalaridan kelib chiqqan holda takomillashtirishga xizmat qilishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ishlab chiqilgan taklif va tavsiyalardan mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlashda, uning tarkibi va turlarini tavsiflashda, ko‘lamini qisqartirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishda hamda soliqqa tortish mexanizmlarini takomillashtirish maqsadida foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Dissertatsiya tadqiqotlari natijalari soha xodimlari malakasini oshirish hamda iqtisodiy xavfsizlik yo‘nalishi bo‘yicha kadrlar tayyorlashda nazariy manba bo‘lib xizmat qiladi.

Shuningdek tadqiqot natijalari amaliy ahamiyati ilmiy ishlanmalarning Bojxona qo‘mitasi, Soliq qo‘mitasi va Statistika agentliklari faoliyatida qo‘llanilayotganida ham namoyon bo‘ladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Yashirin iqtisodiyot oqibatlarini aniqlash va ularni bartaraf etish orqali byudjet tushumlari hajmini oshirish bo‘yicha ishlab chiqilgan ilmiy takliflar asosida:

tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilari tomonidan taqdim etiladigan elektron bojxona yuk deklaratsiyalarini masofadan bojxona rasmiylashtiruvdan o‘tkazish imkonini beradigan “masofaviy elektron deklaratsiyalash” postlarini tashkil etish orqali bojxonaga oid ma’muriy tartib-taomillarni takomillashtirish taklifi O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 10-sentyabrdagi PF-6310-son Farmoni, 1-2 bandlarida bilan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo‘mitasining 2022-yil 22-sentyabrdagi №1/01-2200060-sonli ma’lumotnomasi). Taklifning amaliyotga joriy etilishi natijasida hududlardagi TIF bojxona postlari bojxona nazorati ixtisoslashtirilishi va deklaratsiyalash jarayonlari tezlashgan hamda mansabni suiiste’mol qilish holatlariga barham berilgan;

eksport-import operatsiyalarida soliq bazasini yashirish bilan bog‘liq holatlarni aniqlash tizimini takomillashtirish uchun “Yagona oyna” portali barcha xizmatlarini bir platformaga joylashtirish hamda ma’lumotlar elektron bazasidan raqamli foydalanishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha taklif O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 27-apreldagi PF-122-son Farmoni bilan tasdiqlangan “yo‘l xaritasi” 16-bandi bilan amaliyotga joriy etilgan (O‘zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo‘mitasining 2022-yil 22-sentyabrdagi №1/01-2200060-sonli

ma'lumotnomasi). Ushbu tizimni joriy etilishi natijasida eksportda 84 foiz va importda 74 foiz yuklarni soddalashtirilgan tartibda rasmiylashtirishga erishilgan, bojxona ko'riklari soni 2,2-martaga kamayib, ko'riklar samaradorligini 1,3 barobarga oshirilishiga erishilgan;

bojxona ma'muriyatchiligiga "Vakolatli iqtisodiy operatorlar" tizimini joriy etish va insofli tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga soddalashtirilgan bojxona tartib-taomillaridan foydalanish huquqini berish taklifi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 24-avgustdagi 500-son qaror bilan tasdiqlangan "Vakolatli iqtisodiy operatorlar to'g'risida"gi Nizomning 10-bandi bilan amaliyotga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi davlat bojxona qo'mitasining 2022-yil 22-sentyabrdagi №1/01-2200060-sonli ma'lumotnomasi). Ushbu tizimni yo'lga qo'yish natijasida halol tashkilotlar soni 600 taga ko'payib, 1300 taga etdi hamda 35 ta tadbirkorlik subektiga ushbu maqom berilgan bo'lib, natijada bojxona tartib-taomillaridan foydalanish tartibi va uni amalga oshirish mexanizmlari soddalashtirilgan;

2028-yilga qadar O'zbekistonda yashirin iqtisodiyotni kamaytirish hisobiga davlat byudjetiga jalb etiladigan tushumlar bo'yicha ishlab chiqilgan prognoz ko'rsatkichlari O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi tomonidan davlat byudjetining tushumlari prognozini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasining 2023-yil 22-iyundagi № 21/05-23-0014-sonli ma'lumotnomasi). Mazkur taklif byudjet daromadlari tarkibida soliqlar va yig'implarning prognozlarini aniqlash orqali yashirin iqtisodiyot darajasini pasaytirishning reja-dasturini ishlab chiqish imkonini beradi.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot natijalarida erishilgan nazariy xulosalar 3 ta respublika va 7 ta xalqaro ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan hamda ma'qullangan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 17 ta ilmiy ish, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish bo'yicha tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta ilmiy maqola, jumladan 1 tasi xorijiy jurnalda ingliz tilida nashr etilgan.


Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 123 sahifani tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatsiyaning **kirish** qismida ilmiy tadqiqotning dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi ko‘rsatilgan, ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilinib, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati yoritib berilgan, shuningdek tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy etish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Yashirin iqtisodiyot va uning ilmiy-nazariy asoslari hamda ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari”** deb nomlangan birinchi bobida yashirin iqtisodiyot tushunchasi, uning mohiyati va ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari, rivojlanish genezisi tahlili hamda yashirin iqtisodiyot tarkibi va uning o‘ziga xos xususiyatlari tadqiq etilganligi bayon qilingan.

Mavzuga oid ilmiy tadqiqotlarimizda “yashirin iqtisodiyot”ning xalqaro e’tirof etilgan yagona ta’rifi hamda uning ko‘lamini aniqlashning aniq usullari mavjud emasligini guvohi bo‘ldik. Yevropalik olimlar F.Schneider va A. Buyenlarning fikricha, “Yashirin iqtisodiyot” atamasi adabiyotlarda “norasmiy iqtisodiyot”, “xufiyona iqtisodiyot”, “soyadagi iqtisodiyot” va boshqa turli atamalar bilan ham yuritiladi.⁷ Yashirin iqtisodiy faoliyat asosan latent, ya’ni yashirin xususiyatga ega bo‘lib, uni amalga oshirish usullari doimiy o‘zgaruvchanlik, murakkablashib borish, turli sxemalar orqali sodir etilishi kabi xususiyatlarga ega. Bu esa ularni aniqlash va fosh etish murakkab ekanligini anglatadi. Yashirin iqtisodiyot tushunchasiga quyidagicha yondashuvlarni ilgari surilgan:⁸ (1-rasm)



1-rasm. “Yashirin iqtisodiyot” tushunchasini aniqlashga oid mavjud yondashuvlar⁹

⁷ Schneider, F. and Buehn, A., 2018. Shadow economy: Estimation methods, problems, results and open questions. *Open Economics*, 1(1), pp.1-29.

⁸ Маслов Дмитрий Георгиевич, Кизон Екатерина Андреевна Теневая экономика в России как системное институциональное явление // Известия ВУЗов. Поволжский регион. Общественные науки. 2013. №4 (28). URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/tenevaya-ekonomika-v-rossii-kak-sistemnoe-institutsionalnoe-yavlenie>.


⁹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Bu yondashuvlar bugungi kunga qadar rus iqtisodchilari tomonidan turlicha talqin qilib kelinishiga qaramasdan, mualliflar bu faoliyatni institutsional hodisa sifatida ta'riflab kelishmoqda. Ammo yashirin iqtisodiyot tushunchasini ta'riflashda turli xil yondashuvlardan qat'i nazar, eng muhimi, bizning fikrimizcha, ushbu hodisaning vujudga kelish sabablarini aniqlashdir.

Tadqiqotlarimiz davomida yashirin iqtisodiyot tushunchasiga berilgan ta'rif tahlillariga asosan ushbu atamaga quyidagicha ta'rif berishimiz mumkin:

Yashirin iqtisodiyot – iqtisodiyotning kuzatilmaydigan yoki yashiriladigan, noqonuniy asosga ega tarkibiy qismi bo'lib, uning maqsadi soliqlar va majburiy tartiblarni chetlab o'tgan holda noqonuniy foyda olishga yoki uni oshirishga yo'naltirilgan harakatlar majmuasidir.

Ilmiy jamoatchilikda yashirin iqtisodiy faoliyatni ko'lamini aniqlash va unga ta'rif berishga oid ko'plab qarashlar mavjud. Mualliflar yashirin iqtisodiyotning mohiyati, belgilari, darajasi, tendensiyalari va unga bo'lgan munosabatlarni aks ettiradigan turli xil atamalarni qayd etishgan. Ma'lumki, bunday xilma-xillik nafaqat muammoning murakkabligini, balki unga nisbatan yondashuvlarning ham turlichaligini ko'rsatadi. Ushbu qarashlarga ko'ra biz yashirin iqtisodiy faoliyatning quyidagi tarkibiy qismlarini alohida e'tirof etishimiz mumkin. (2-rasm)




2-rasm. Yashirin iqtisodiyotning takibiy qismlari¹⁰

Ushbu rasmga ko'ra, yashirin iqtisodiy faoliyatni tashkiliy-huquqiy shakliga ko'ra 3 guruhga ajratishimiz mumkin. Bu aynan iqtisodiy subyektning huquqiy maqomiga ko'ra ta'riflangan. Bundan tashqari, yashirin iqtisodiy faoliyatga oid jarayonlarni ham 3 bosqichda aks ettirish mumkin. Yashirin iqtisodiyotda mahsulot ishlab chiqarish, uni realizatsiya qilish va daromadni yo'naltirish yoki taqsimlash.

¹⁰ Muallif tomonidan tayyorlangan.

Yashirin iqtisodiy faoliyatdan olinadigan daromadning taqsimlanishi yoki boshqa sohalarga yoʻnaltirilishi tadqiqotlarda alohida eʼtiborga olinishi zarur boʻlgan holat hisoblanadi. Bu kabi huquqbuzarlik nafaqat mol-mulk va pulning jinoiy kelib chiqishini yashiradi, balki jinoyatchining ijtimoiy mavqeyini oshiradi, uni qonunga boʻysunuvchi tadbirkorga aylantiradi.

Yashirin iqtisodiy faoliyatning sohalarga koʻra taqsimlanishini ham koʻrib chiqadigan boʻlsak, uni asosiy 5 guruhga boʻlishimiz mumkin. (3-rasm)



3-rasm. Yashirin iqtisodiyotning sohalari kesimida tasniflanishi¹¹

Guruhlardagi faoliyatning xilma-xilligidan tashqari, vaqt oʻtishi bilan bu faoliyat yangi shakllarda namoyon boʻlishi kuzatiladi. Bunday holatlar aynan bugungi raqamli asrda sodir boʻlmoqda. Ushbu sharoitda shakllanib kelayotgan yashirin iqtisodiy faoliyatni aniqlash va nazorat qilish tobora murakkablashib bormoqda. Bundan tashqari, dunyoda raqamli iqtisodiyotning joriy etilishi koʻplab imkoniyatlar bilan bir qatorda yashirin iqtisodiyot bilan bogʻliq turli tadbirlarning elektron tarzda amalga oshirilishini ragʻbatlantirmoqda.

Yuqoridagilarni umumlashtirgan holda yashirin iqtisodiy faoliyatning iqtisodiyotga taʼsir oʻtkazuvchi salbiy oqibatlariga toʻxtalib oʻtamiz:

- davlat sektorining buzilishi;
- makroiqtisodiy siyosat samaradorligiga taʼsiri;
- pul-kredit sohasiga salbiy taʼsiri;
- iqtisodiyot tarmoqlarining buzilishi;

¹¹ Muallif tomonidan tayyorlangan.

soliq sohasining buzilishi;
iste'mol strukturasi buzilishi.

Ushbu omillarning har birida ta'sir doirasining kengayishi mamlakatning iqtisodiyotini tobora inqirozga yuz tutishiga sabab bo'ladi.


Dissertatsiyaning «**Yashirin iqtisodiyot darajasini baholashning iqtisodiy modullari va uning budget daromadlariga ta'sirini baholash**» deb nomlangan ikkinchi bobida yashirin iqtisodiyot ko'lamini aniqlash metodlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, uning tarkibida korrupsiogen holatlarning o'rni va amaliy tahlil qilingan holda mamlakatlarda yashirin iqtisodiyot darajalari o'rganilgan.

Yashirin iqtisodiyot muammolarini tadqiq etishda olimlar tomonidan dunyo miqyosida ko'plab yondashuvlar va usullardan foydalanilgan. Jahon amaliyotida yashirin iqtisodiyot darajasini aniqlashda foydalanilgan usullarni 2 guruhga bo'lish mumkin.

Birinchi guruh bevosita usullar guruhi bo'lib, bunda: ochiq tekshirish usullari maxsus yaratilgan tartibga soluvchi organlar tomonidan qo'llaniladi.

Ikkinchi guruhda esa bilvosita usullar: "Tranzaksion metod", "Naqd pulga bo'lgan talab" metodi, "Energiya sarfi iste'moli metodi" va MIMIC modeli va boshqa usullarni qamrab oladi.


Yevropa olimlari ko'rsatkichlar va statistik ma'lumotlar asosida yashirin iqtisodiyot darajalarini o'lchovchi modellarni ishlab chiqmoqdalar. F.Schneider tomonidan ishlab chiqilgan MIMIC modelining metodologiyasi asosida quyidagicha natija olingan. (4-rasm)



4-rasm. 2021-yil holatiga Yevropa ittifoqi mamlakatlarida yashirin iqtisodiyot darajasi¹²

F.Kagan tomonidan ishlab chiqilgan naqd pulga bo'lgan talab metodi natijalari boshqa usullardan ko'ra aniqroq natija berishi aniqlangan. Bu usulining asosiy mazmuni shundan iboratki, iqtisodiyotda yashirin sektorining o'sishi pulga bo'lgan talabning o'sishiga olib keladi va yashirin operatsiyalar asosan naqd pul bilan amalga oshiriladi degan taxminga asoslanadi. Natijada yashirin operatsiyalar haqida hech qanday dalil qolmaydi. Ushbu usul yordamida mamlakatimizda yashirin iqtisodiyot darajasi aniqlangan. (5-rasm)

¹² Schneider, F. New COVID-related results for estimating the shadow economy in the global economy in 2021 and 2022. *Int Econ Econ Policy* 19, 299–313 (2022). <https://doi.org/10.1007/s10368-022-00537-6>




5-rasm. O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot darajasi¹³

Ushbu usulning natijalariga ko‘ra, mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotning YAIMdagi ulushi 2000-yilda 38 foizdan boshlanib 2018-yilgacha tartibsiz o‘zgarishlar bilan yuqorilab bormoqda.

Ko‘pgina tadqiqotlar korrupsiya iqtisodiy o‘sishga salbiy ta‘sir qiladimi yoki iqtisodiyotdagi ayrim to‘siqlarni chetlab o‘tish orqali ijobiy ta‘sir ko‘rsatishi mumkinmi, degan savolga e‘tibor qaratildi. Shu sababli korrupsiyaning mamlakat iqtisodiy xavfsizligiga, yashirin iqtisodiyotning darajasiga ta‘siri masalasini nazariy jihatdan ko‘rib chiqishni dolzarb deb hisoblaymiz.

Korrupsiyaning yashirin iqtisodiyotga ta‘siri masalasini o‘rganishning navbatdagi bosqichi korrupsiya va iqtisodiy ko‘rsatkichlar o‘rtasidagi munosabatlarni matematik tahlil qilish, ta‘sir mavjudligini tekshirish va iqtisodiyotning ojiz sohalarini ajratib ko‘rsatish bo‘ladi.

Statistik jihatdan solishtirilishi kerak bo‘lgan asosiy ko‘rsatkich bu Korrupsiyani qabul qilish indeksidir (Corruption Perceptions Index, CPI). Keyingi ko‘rsatkich investitsiya ko‘rsatkichlari bo‘lib, ular sinov ko‘rsatkichlari sifatida qabul qilinadi chunki korrupsiya muammosi tadqiqotimiz davomida o‘rganganimizdek bog‘liqlik mavjud bo‘lgan yana bir omildir. (6-rasm)



6-rasm. O‘zbekiston Respublikasi investitsiyalar dinamikasi va CPI indeksi o‘rtasidagi bog‘liqlik¹⁴

¹³ Xalqaro valyuta fondi ma‘lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

¹⁴ Statistik ma‘lumotlar asosida muallif tomonidan tayyorlandi.

Bundan kelib chiqadiki, korrupsiya darajasi mamlakatga jalb qilinadigan investitsiyalarning hajmiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir o‘tkazadi. Natijada, korrupsiya darajasi qancha yuqori bo‘lsa mamlakatda iqtisodiy xavfsizlik darajasi shunchalik past bo‘ladi. Bu esa yashirin iqtisodiyotning rivojlanishiga bevosita ta’sir o‘tkazadi.

Bundan tashqari, korrupsiya mamlakatning soliq tuzilmasi va uning daromadlarini yig‘ish qobiliyatiga ham putur etkazadi. Korrupsiya soliq to‘lashdan bo‘yin tovlash ko‘rinishida bo‘lsa, u mamlakatda undiriladigan soliq tushumlarida sezilarli yo‘qotishlarga olib kelishi mumkin, bu esa o‘z navbatida korrupsiya va soliq tushumlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni o‘rganuvchi adabiyotlar tahlilida tasvirlanganidek, salbiy fiskal oqibatlarga olib kelishi mumkin. Adabiyotlarda korrupsiya nafaqat soliqlarning yalpi ichki mahsulotga nisbatini pasaytiradi, balki yashirin iqtisodiyot hajmini oshirish, soliq tuzilmasini buzish va soliq to‘lovchining soliq ma’naviyatini buzish orqali iqtisodiyotga uzoq muddatli zarar keltiradi.

Yashirin iqtisodiyotning asosiy tarkibiy qismidan biri bu noqonuniy savdo faoliyati bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu faoliyat kontrafakt mahsulotlar savdosi, intellektual mulk sohasidagi qaroqchilik, qalbakilashtirish, kamyob mahsulotlar savdosi, savdo jarayonida soliqlardan qochish kabi kategoriyalarni o‘z ichiga oladi. Noqonuniy savdoning globallashuvi bu mamlakatlar ijtimoiy-iqtisodiy sohasiga katta zarar yetkazuvchi omillardan biri sifatida namoyon bo‘ladi. Shunday ekan ushbu faoliyat turi nafaqat soliq organlari balki bojxona xizmatiga ham alohida vazifalar yuklaydi.

Tadqiqotlarimizni boshlaganimizda, bojxona organlarida noqonuniy savdoga oid huquqbuzarliklar jami 120 mlrd. so‘mdan ortiq zararni tashkil qilgan. (1-jadval)

1-jadval

Bojxona organlarida 2019 yilda aniqlangan huquqbuzarliklar¹⁵

Huquqbuzarlik turi	soni	Yetkazilgan zarar miqdori
tovarlarning TIF TN kodlarini o‘zgartirish;	19	24 mlrd. so‘m
tekstil mahsulotlarini import qilish yuzasidan berilgan imtiyozlardan noqonuniy foydalanish	17	15,3 mlrd. so‘m
respublikaga yuqori stavkali tovarlarni past stavkali tovarlarga almashtirgan holda bojxona rasmiylashtirish	7	66,8 mlrd. so‘m
tovarlarni deklaratsiyada ko‘rsatmaslik	5	11,9 mlrd. so‘m
preferensiya olishda maqsadida tovarlar kelib chiqish sertifikatlarini soxtalashtirish	6	1,49 mlrd. so‘m
tovarlar qiymatini pasaytirish	7	2,2 mlrd. so‘m

¹⁵O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi bojxona qo‘mitasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tayyorlangan.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi **“O‘zbekistonda yashirin iqtisodiyot darajasini fiskal siyosat instrumentlari yordamida pasaytirish yo‘llari”** deb nomlanib, unda tovarlar importining yashirin iqtisodiyot darajasiga ta’siri, uning soliq bazasiga bog‘liqligi, yashirin iqtisodiyotni qisqartirishda bojxona tartib taomillari, ularni takomillashtirish masalalari hamda yashirin iqtisodiyotni budget daromadlariga ta’sirining ekonometrik tahlili, prognozi amalga oshirilgan va umumlashtirilgan.

Mustaqillik yillarda mamlakatimizda iqtisodiyotni erkinlashtirish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlarga qaramasdan mamlakatimizda yashirin iqtisodiyotni ulushi yuqoriligicha qolmoqda. Yashirin iqtisodiyotni ulushi yuqoriligining sabablari:

soliq, boj hamda yig‘imlar turlari ko‘pligi va ularning to‘lovlari miqdori yuqoriligi;

banklar bilan hisob-kitoblar, to‘lovlar, pul mablag‘larini berish, xizmat ko‘rsatish sifatining pastligi va yuqori foiz stavkalari;

tadbirkorlarning zarur bilimlari va tajribasining yo‘qligi;

ishlab chiqarish infratuzilmasi shart-sharoitlari pastligi, biznesni tashkil etish va olib borishda byurokratik to‘siqlar mavjudligi;

korrupsiya darajasi balandligi;

mulk huquqlarining ishonchsizligi.

Xorijiy va mamlakatimiz bojxona nazorati amaliyotini o‘rganish natijalari yashirin iqtisodiyotni oldini olish hamda unga qarshi kurashishni tashkil etish bo‘yicha mavjud qonunchilik hamda faoliyatini tashkil etishni takomillashtirishni taqozo etishini ko‘rsatmoqda.

Mamlakatimizda bojxona to‘lovlari stavkalarining hamon yuqoriligi, noqonuniy savdoni oldini olish mexanizmlarini yetarli tashkil etilmaganligi, korrupsiya darajasining yuqoriligi, bojxona tizimining barcha soha va yo‘nalishlarini to‘liq avtomatlashtirilmaganligi singari kamchiliklar yashirin iqtisodiyotga qarshi kurashish ishlari samarasiga salbiy ta’sir o‘tkazmoqda.

Tahlillarimiz jismoniy shaxslar va tadbirkorlar tomonidan to‘lovlardan qochish maqsadida tovarlarni noqonuniy yo‘llar yoki kam stavkali tovarlar sifatida, “yolg‘on tranzit”, “soxta eksport” yoxud hujjatli kontrabanda yo‘li bilan keltirish holatlari noqonuniy savdo kanallaridan biri bo‘lib qolayotganligini ko‘rsatmoqda.

Amaliyotda tovarni umumiy yoki o‘xshash nomlarda qayd etish bilan TIF TN kodlarni noto‘g‘ri belgilash, qiymatni kamaytirib ko‘rsatish, son va qiymatini yashirishga urinishlar ko‘paymoqda.

Mamlakatimizda importni maqbullashtirish, eksportni qo‘llab-quvvatlash borasida amalga oshirilayotgan islohotlarga qaramasdan tashqi savdo qoldig‘iga hamon salbiy bo‘lib qolmoqda. Investitsiya va mahalliy lashtirish siyosati orqali import o‘rnini bosuvchi mahsulotlar ishlab chiqarish evaziga import-eksport mutanosibligini ta’minlashga oid choralari ham ijobiy natija bermayapti.

Fikrimizcha, ochiqlik va shaffoflik ta’minlangan raqamli bojxona sharoitida tashqi savdo ijobiy saldosiga erishish, YAIM tarkibida yashirin iqtisodiyot ulushini

qisqartirish, barqaror jozibador investitsiya muhitini yaratish va import-eksport mutanosibligini ta'minlash maqsadida:

Jahon Bojxona Tashkiloti, Iqtisodiy hamkorlik va taraqqiyot tashkiloti, Noqonuniy savdoga qarshi kurash bo'yicha transmilliy alyans kabi tashkilotlar bilan hamkorlik aloqalarini o'rnatish;

tashqi savdo faoliyatini yanada erkinlashtirish bo'yicha bojxona qonunchiligini Singapur, Xitoy va Janubiy Koreya tajribalaridan foydalanishni takomillashtirish;

respublikamizning turli xorijiy savdo tashkilotlarida kuzatuvchi maqomida ishtirok etishi ko'zda tutilayotganligi bois, mamlakat iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash va yashirin iqtisodiyot ko'lamini qisqartirishga qaratilgan qonunchilik amaliyoti va mexanizmlarini qayta ko'rib, shu asosda bojxona ma'murchiligini takomillashtirish va soddalashtirish maqsadga muvofiq.

Aksiz osti va yuqori likvidlik tovarlarni yashirin ravishda ishlab chiqarish yoki bunday tovarlarni chetdan kontrabanda yo'li bilan olib kirish holatlariga to'liq barham berilmaslik YAIM yaratuvchilari hisoblangan halol TIF qatnashchilari va milliy ishlab chiqaruvchilarga qiyinchiliklar keltirib chiqaradi.

Kontrabanda yo'li bilan mamlakatga kirib kelgan tovar va xom ashyolar bozorda nosog'lom raqobat muhitini yaratadi. Bunday vaziyatda, bojxona xizmati organlarining idoralararo hamkorlik masalalari asosiy ahamiyat kasb etadi. Bunda huquqni muhofaza qiluvchi tashkilotlar soliq va boshqa nazorat idoralari, bilan hamkorlikda, ma'lumotlarni real vaqt rejimida almashinuvini ta'minlash, nazorat dasturlari asosida noqonuniy faoliyat holatlarini aniqlash va tizimli tahlil qilish mamlakatimiz milliy va iqtisodiy xavfsizligini ta'minlashda qo'l keladi.

Navbatdagi ahamiyatga molik masalalardan biri bu bojxona rasmiylashtiruvidan o'tgan yuklarni kameral tekshiruv orqali nazorat qilishning huquqiy va amaliy mexanizmlarini yaratishda xorij amaliyotidan foydalanish samarali hisoblanadi.


Xorijiy davlatlar tajribalarini o'rganishlar natijasida deklaratsiyalashni soxtalashtirishini oldini olish maqsadida Janubiy Koreya va Rossiya Federatsiyasi bojxona xizmatlari tajribasini amaliyotga qo'llagan holda "elektron deklaratsiyalash" tartibini joriy qilish orqali har bir hududiy tuzilmada "Elektron deklaratsiyalash markazlarini" tashkil qilish mumkin. Ushbu taklifning nazariy va amaliy asolari ikki davlatning joriy tajribalari o'rganilgan holda shakllangan bo'lib, Jahon Bojxona tashkiloti (JBT) tomonidan amalga oshirilayotgan hamkorlik dasturlari doirasida 2016-yil "Raqaamli bojxona"¹⁶ yili deb e'lon qilinishi¹⁷ natijasida ko'pgina rivojlangan mamlakatlar o'z bojxona tizimlarida raqaamli integratsiyalashni amalga oshirishdi. Jumladan, Rossiya Federatsiyasida 2018-yilda birinchi "Elektron

¹⁶ Butunjahon Bojxona tashkilotining "WCO News" nashrlaridan birida "**Raqaamli bojxona**" atamasi bojxona to'lovlarini to'lashni ta'minlash va kafolatlash, tovarlar, odamlar, transport vositalari va pullar oqimini nazorat qilish, shuningdek, xalqaro savdoni jinoyatchilik, shu jumladan xalqaro terrorizmdan himoya qilish uchun raqaamli tizimlardan foydalanish deb ta'riflangan.

¹⁷ Jahon Bojxona tashkilotining 12.11.2015-yildagi axborot habari.

<http://www.wcoomd.org/en/media/newsroom/2015/november/world-customs-organization-declares-2016-to-be-the-year-of-digital-customs.aspx>

bojxona” tizimi ish boshladi.¹⁸ Elektron bojxona tizimi Mintaqaviy bojxona boshqarmalari, mintaqaviy elektron bojxona va ularga bo‘ysunadigan elektron deklaratsiya markazlarini o‘z ichiga oladi. Elektron deklaratsiya qilish markazining tuzilishi ikkita smeta jadvaliga binoan amalga oshiriladigan, bojxona rasmiylashtiruv va bojxona nazorati bo‘limlarini o‘z ichiga oladi. Janubiy Koreyada esa Yashirin iqtisodiyotning ulushini qisqartirishga qaratilgan islohotlarni “Yagona oyna” mexanizmiga asoslangan qog‘ozsiz savdo maydonchasini yaratishdan boshlangan va tizim bugungi kunga qadar takomillashtirilib kelinmoqda. Platforma ikkita tizimdan iborat: “UtradeHub”- milliy oyna va bojxona organlarining yagona oynasi -“UniPass” (Uni-Pass).¹⁹ “UtradeHub” tashqi savdo subyektlarining deklarantlariga 600 dan ortiq turdagi elektron hujjatlarni taqdim etish, sertifikatlash va litsenziyalash uchun elektron arizalarni topshirish va davlat nazorat organlari tomonidan bunday arizalarni ko‘rib chiqish natijalari to‘g‘risida xabarnomalarni olish imkonini beradi. Ushbu tajribalarni umumlashtirgan holda, masofaviy elektron deklaratsiyalashning namunaviy tizimini taklif etish mumkin. (7-rasm)



7-rasm. Masofaviy elektron deklaratsiyalashning namunaviy tartibi²⁰

Mazkur tizim tashqi iqtisodiy faoliyat ishtirokchilariga deklaratsiyalashning osonlashuvi, vaqtni tejash va boshqa ko‘plab imkoniyatlar yaratadi. Bojxona organlarining bojxona tartib-taomillarini amalga oshirishida nazorat qilish funksiyalarining bajarilishi Elektron deklaratsiya markazining o‘z mintaqalaridagi

¹⁸ “Таможенная служба Российской Федерации в 2018 году” Справочные материалы к расширенному заседанию коллегии ФТС России. Москва 2019.

¹⁹ Hoon-Goo Cho, Uni-Pass: Korea’s Customs modernization tool.

<https://www.mag.wcoomd.org/magazine/wco-news-79/uni-pass-koreas-customs-modernization-tool/>


²⁰ Muallif tomonidan tayyorlangan

nazorat qilish bojxona postlari bilan o‘zaro hamkorligi orqali ta’minlanadi. Xavflarni baholash tizimi deklarantga nisbatan past darajadagi ishonchni yuzaga keltirsa, elektron deklaratsiya markazining butun mamlakat bo‘ylab amaldagi nazorat postlari bilan hamkorlikda bojxona nazoratini amalga oshirilishi ta’minlanadi. Bundan tashqari, Janubiy Koreya “Yagona oyna” portali tizimining barcha xizmatlarni bitta platformaga joylashtirish kabi raqamli transformatsiyalash asosida “raqamli bojxona” tizimini yo‘lga qo‘yish hamkor nazorat idoralari va xorijiy davlatlar bilan elektron axborot almashuvini amalga oshirish imkonini beradi.

Xitoy hukumati esa 2016-yil oktyabrida yashirin iqtisodiyotni qisqartirish maqsadida tashqi iqtisodiy faoliyat qatnashchilarining kreditga layoqatliligini hisobga olgan holda “raqamli bojxona” doirasida davlat nazoratiga asoslangan “Vakolatli iqtisodiy operator dasturi (VIO) dasturini joriy etgan. Dastur bo‘yicha akkreditatsiyadan o‘tgan yuridik shaxslar “Rivojlangan va sertifikatga ega kompaniyalar” deb tan olinadi va davlat organlari, shu jumladan Xitoy bojxona xizmati tomonidan taqdim etiladigan 49 turdagi soddalashtirilgan dasturlardan foydalanish huquqiga ega bo‘ladi. Ushbu soddalashtirishlar oltita toifaga bo‘linadi.

